

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

## MILLIY BUXGALTERIYA HISOBI

Baybutayeva Farangiz Farxod qizi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 1 kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy buxgalteriya hisobi hamda buxgalteriya hisobini o`rganish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilim va mahoratga ega bo`lish yo`llari to`g`risida so`z boradi. Shuningdek O`zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning elektron tizimlari borasida ham chuqur mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Milliy buxgalteriya hisobi, milliy standartlar, moliyaviy holat, buxgaltjeriya balansi, sug`urta tashkilotlari, (BHMS), mahalliy valyutalar.

**Abstract:** This article discusses the ways to acquire knowledge and skills in making management decisions in the field of national accounting and the study of accounting. Also, in-depth considerations are made about electronic systems of accounting and financial reporting in Uzbekistan.

**Keywords:** National accounting, national standards, financial condition, balance sheet, insurance organizations, (BHMS), local currencies.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается национальный бухгалтерский учет и способы, с помощью которых изучение бухгалтерского учета может предоставить знания и навыки для принятия управленческих решений. Также состоялись углубленные обсуждения по системам электронного учета и финансовой отчетности в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Национальный бухгалтерский учет, национальные стандарты, финансовое положение, баланс, страховые организации, (BHMS), местные валюты.

### Kirish

Biznes sohasida ishlarni muvaffaqiyatli yuritish uchun buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy qonunlarini bilish zarur. Buxgalteriya hisobini o`rganish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilim va mahoratga ega bo`lish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobi juda qadimda xo`jalik faoliyatining zaruriyati va ehtiyoji sifatida yuzaga kelgan. Buxgaltteriya hisobi bozor iqtisodiyotini barpo etshda muhim o`rin egallaydi. Respublikamiz iqtisodiyotining xo`jalik yuritishida bozor sharoitlariga o`tish davrida uning ahamiyati beqiyos ravishda oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini to`g`ri tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda mavjud bo`lgan buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiqlashtirish iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buning uchun 2016 yil “Buxgalteriya hisobi to`g`risida”gi qonun va Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) ishlab chiqildi. Ular buxgalteriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda korxonalarining mustaqilligini kengaytiribgina qolmasdan, hisob axborotining ishonchliligi uchun ularning mas`uliyatini ham oshirmoqda.

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*III son, Fevral*

Buxgalteriya tizimini isloh qilishda xalqaro tamoyillarga asoslangan hisobvaraqlar rejasining qabul qilinishi navbatdagi muhim qadamlardan biri bo`ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasi O`zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Buxgalteriya xisobini isloh qilinishi, uning boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobiga bo`lib o`rganishimizni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma`lumki, buxgalteriya hisobini bunday ajratilgan xolda tashkil qilish nafaqat korxonaning, boshqa manfaatdor tomonlarning istiqboli uchun xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o`tish sharoitida nafaqat buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish, shuningdek bu sohada malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy e'tibor berish zarur.

Shu o'rinda Milliy buxgalteriya hisobiga qisqacha to'xtalib o'tsak, Milliy buxgalteriya hisobi – bu har bir davlatning o'z iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy tizimiga moslashtirilgan buxgalteriya hisobining shaklidir. U mamlakat qonunchiligiga, soliq tizimiga va xalqaro standartlarga asoslanib ishlab chiqiladi.

Endi Milliy buxgalteriya hisobining asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqsak:

Birinchisi qonunchilikka mosligi – har bir davlat buxgalteriya hisobini yuritish tartibini qonunlar va normativ hujjatlar bilan tartibga soladi.

Ikkinchisi soliq tizimiga bog'liqligi – ko'pgina mamlakatlarda buxgalteriya hisobi soliqqa tortish tizimi bilan bog'liq bo`lib, soliq organlariga hisobot taqdim etish talab etiladi.

Uchinchi mahalliy valyutada yuritilishi – hisob-kitoblar milliy valyutada olib boriladi.

To'rtinchi hisobot turlari – Davlat tomonidan belgilangan moliyaviy va soliq hisobotlari tayyorlanadi.

Beshinchi xalqaro standartlarga yaqinlashish – Ko'pgina davlatlar milliy hisob tizimini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) yoki AQSh GAAP kabi tizimlarga moslashtirmoqda.

Endi milliy buxgalteriya hisobining tuzilishiga to'xtalib o'tsak:

1)Moliyaviy buxgalteriya – Korxonaning moliyaviy holati, daromadlari va xarajatlari haqida hisobot tayyorlash.

2)Soliq buxgalteriyasi – Davlatga to'lanadigan soliqlarni hisoblash va tegishli organlarga hisobot topshirish.

3)Boshqaruv buxgalteriyasi – Ichki qarorlar qabul qilish uchun korxona rahbariyatiga ma'lumot berish.

4)Statistik hisob – Davlat statistika idoralariga zarur ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat.

O`zbekiston Respublikasida milliy buxgalteriya hisobi, O`zbekistonda buxgalteriya hisobi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun asosida yuritiladi. Bu tizim Milliy buxgalteriya standarti (NBS) hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga moslashtirilgan.

Hisobotlar quyidagilardan iborat:

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*III son, Fevral*

- Buxgalteriya balansi
- Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot
- Pul oqimlari hisobot
- O‘z kapitalidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot

O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot elektron tizimlar orqali ham yuritilib, Soliq.uz va Xarajat.uz kabi platformalar ishlataladi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi. Qarorga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- tijorat banklari;
- sug‘urta tashkilotlari;
- yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Milliy buxgalteriya hisobi har bir davlatning iqtisodiy va huquqiy tizimiga mos ravishda shakllanadi. U soliq tizimi, milliy valyuta va davlat tomonidan belgilangan buxgalteriya standartlariga asoslanadi. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi Milliy buxgalteriya standartlari (NBS) va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ga mos ravishda yuritiladi. Hisobotlar davlat organlariga topshiriladi va elektron tizimlar orqali yuritilishi ham rivojlanmoqda. Bu tizim biznes shaffofligini oshirish va moliyaviy boshqaruvni yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishnormativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo‘lib, u maqsad va holatigaqarab to‘rt darajadan iborat. Buxgalteriya hisobi xo‘jalik hisobining ajralmas qismi hisoblanadi.Xo‘jalik hisobi uch turga: Operativ, Buxgalteriya, Statistikga bo‘linadi. Buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzzish chog’ida buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillari qo’llanishini ifodalaydi.Buxgalteriya balansi uning resuslari va moliyaviy tarkibi,hisobat vaqtidagi moliyaviy ahvolini aks ettiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston respublikasining “buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni no 404. –t.: 2016 y
2. O‘zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari. T.: -o‘bama. 2004.
3. Sh. Ergasheva, a.k.ibragimov, n.k.rizaev, i.r.ibragimova moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo’llanma.// -t.: iqtisodiyot, 2019. -227bet.

## **TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR**

*III son, Fevral*

4.turayeva g. Factors for increasing the stability of grain production and performance indicators //theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. –2023. –т. 2. – no. 6. –с. 45-50.

5.turayeva, g., abdullayeva, g., abdurasulova, n., ibragimova, a., meliyeva, l., & olimjonova, m. (2022). Xalqaro bozorlarda “made in uzbekistan” brendidan keng foydalanish imkoniyatini yaratish mezoni.zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar,1(27), 99-102.

6.qaxxorovna, t. G. (2023). The impact of artificial intelligence on the economy.web of synergy: international interdisciplinary research journal,2(2), 57-61.

7.qaxxorovna, t. G., djurayevich, z. A., & bobomurot o‘g‘li, n. R. (2023). Qishloq xo‘jaligida innovatsion faollikni oshirish.barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali,3(2), 80-84.

8.qaxxorovna, t. G., & ikrom o‘g‘li, x. J. (2023). Qishloq xo‘jaligiga bozor mexanizmlarini joriy qilish.barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali,3(2), 85-90